

## BUYUK BHARAT O'G'LONI: RUHIY UYG'ONISH ELCHISI

Qodirova Gavhar Maratovna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15306187>

### Kirish

Sharq sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lgan Hindiston qadimdan buyuk madaniyat, falsafa va ruhiy bilimlar makoni bo‘lib kelgan. O‘zbekiston bilan Hindiston o‘rtasidagi tarixiy aloqalar, ayniqsa, Boburiylar davrida nihoyatda kuchli bo‘lgan. Ajdodlarimiz tomonidan barpo etilgan me’moriy obidalar – Agra qal’asi, Humoyun maqbarasi, Dehli masjidi va boshqa ko‘plab inshootlar bugungi kungacha hind xalqining faxri sanaladi.

Zamonaviy davrda esa bu tarixiy rishtalar yangi mazmun kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Hindiston bilan hamkorlik har tomonlama rivojlanmoqda. Prezidentimiz ilgari surgan “Yangi O‘zbekiston – Yangi Renessans sari” g‘oyasi doirasida ikki xalq o‘rtasidagi ma’naviy, ilmiy va madaniy aloqalar mustahkamlanmoqda. Madaniyat haftaliklari, ilmiy ekspeditsiyalar, qo‘shma loyihibar orqali xalq diplomatiyasi yangi bosqichga ko‘tarilmoqda.

Bu fon voqealari bizni yana bir bor qadimiy hind madaniyati va uning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shtigan hissasini o‘rganishga undaydi. Ayniqsa, Vedik madaniyat elchisi bo‘lgan buyuk avliyo – Shrila Prabhupadaning hayoti va merosi bunga yorqin misoldir.

Veda madaniyati – Ilohiy bilimlar manbai

Veda madaniyati insoniyat tarixidagi eng qadimiy ilohiy bilimlar tizimi sanaladi. "Veda" sanskrit tilida "bilim" degan ma’noni anglatadi. To‘rt asosiy Veda – Rigveda, Yajurveda, Samaveda va Atharvaveda orqali insonning tabiat, jamiyat, koinot va Xudo bilan bog‘lanishi tushuntiriladi.

Vedik ta’limot insonni axloqiy hayot tarziga, ruhiy uyg‘onish sari yetaklaydi. Bu madaniyatda san’at, tibbiyot (ayniqsa, Ayurveda), musiqa, arxitektura kabi sohalar chuqur o‘rin egallagan. Bugungi kunda insoniyat duch kelayotgan ekologik inqiroz, stress va ma’naviy bo‘shliqlarga qarshi Veda madaniyati nurli yo‘l ko‘rsatmoqda.

Shrila Prabhupada – Zamonaviy Veda elchisi

A. C. Bhaktivedanta Svami Shrila Prabhupada 1896-yilda Hindistonning Kolkata shahrida tavallud topgan. U 1922-yilda ruhi ustoz – Shrila Bhaktisiddhanta Sarasvati Goswami bilan uchrashib, Veda ilmini ingliz tilida tarqatish vazifasini oladi.

Keyingi yillarda “Bhagavad-gita”ga izohlar yozib, “Back to Godhead” jurnalini chiqaradi va 1959-yilda sann’yasa (ruhoniy hayot) qabul qiladi.

Shrila Prabhupada Vrinavandagi Radha-Damodara ibodatxonasida “Shrimad Bhagavatam” asari ustida ish boshlaydi. 1965-yilda “Shrimad Bhagavatam”ning dastlabki uch jildini qo‘lga olib, AQShga boradi. 1966-yilda esa Nyu-Yorkda ISKCON – Krishna Ong‘illik Xalqaro Jamiatiga asos soladi. Uning qisqa umrida 50 dan ortiq asarlar, sharhlar yozildi, 14 marta dunyo bo‘ylab safar qildi, minglab odamlarga ma’naviy yo‘l ko‘rsatdi.

U asos solgan jamiat bugungi kunda yuzdan ortiq mamlakatda faoliyat yuritmoqda. Mayapur, Vrindavan, Mumbay va boshqa shaharlarda yirik ibodatxonalar, gurukulalar, muzey va madaniyat markazlari qurilgan. Ammo eng muhim merosi – bu uning asarlari. O‘scha asarlar bugun 80 dan ortiq tillarga tarjima qilingan va ko‘plab universitetlarda o‘quv qo‘llanma sifatida foydalanilmoqda.

Jorj Harrison va Shrila Prabhupada: Musiqa va ruhiyatning uchrashuvি

Mashhur "The Beatles" guruhining a’zosi Jorj Harrison Shrila Prabhupadaning yaqin izdoshi bo‘lgan. U Prabhupadaning falsafasidan ilhomlanib, “My Sweet Lord” qo‘shig‘ini yaratdi. Bu qo‘shiq Krishna ongini G‘arb musiqasi orqali keng jamoatchilikka yetkazdi. Harrison aytganidek:

“Prabhupada faqat dinga emas, hayotga yangicha qarash berdi. Bu hayot faqat tan uchun emas – bu ruh uchun ham!”

ISKCON O‘zbekistonda O‘zbekistonda ham ISKCON jamiyati qonuniy faoliyat yuritib, Veda madaniyatini targ‘ib qilmoqda. U turli madaniy dasturlar, seminarlar orqali jamiyatda axloqiylik, tinchlik, murosani targ‘ib qiladi. Ruhiy hayotga qiziqish ortib borayotgan hozirgi davrda bu harakat yoshlar orasida ijobiy ta’sir o‘tkazmoqda.

### Xulosa

Bugungi jamiyatda inson axloqiy, ekologik va ruhiy sinovlarga duch kelmoqda. Shunday bir davrda Shrila Prabhupada singari ulug‘ zotlarning hayoti, falsafasi va merosi – bu yo‘qotilgan ma’naviy yo‘llarni topish uchun ishonchli yo‘lboshchidir.

Men bu mavzuga katta qiziqish bildirgan holda mazkur maqolani tayyorladim. Ko‘plab yurtdoshlarimiz, ayniqsa yoshlar bu ulug‘ shaxs va Vedik meros haqida ko‘proq bilishlarini, ilhom olishlarini istadim.

Shrila Prabhupada – bu bir insonning tarjimayi holi emas, bu insoniyat uchun yozilgan ma’naviy darslikdir.